**Abstract.** The article describes the importance of communicative competence in the professional activity of future psychologists. The core of the future psychologist's professional training is the individual's professional direction and professional skills. In the professional training of a modern specialist, his communicative readiness is of particular importance. Such preparation assumes that the specialist is ready for constructive and effective close relations with people and the professional environment, practical and personal relations with employees and managers, and the ability to establish and develop such relations. Communicative readiness of a person exists only when a person's speech culture is sufficiently developed and he knows how to use words and language correctly.

**Key words:** future psychologists, professional competence, communication, communicative competence, communicative activity.

## **OLIIY TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK PSIXOLOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MUHIM MEZONLARI**

**Axmedov Akmal Yusufovich**

FarDU Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak psixologlarning kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning ahamiyati bayon etiladi. Bo'lajak psixolog kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnatishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak psixologlar, kasbiy kompetentlik, kommunikatsiya, kommunikativ kompetentlik, kommunikativ faoliyat

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N64>

**Kirish.** Ma'lumki bo'lajak psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimi ularda kasbiy zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirmog'i va professional faoliyatga tayyorlashi lozim.

Kasbiy psixologiya fanida E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi keng tarqalgan. Unda mehnat obyektiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi. Bular

1. Inson-tabiat
2. Inson –texnika



3. Inson-inson
4. Inson-belgilar tizimi
5. Inson-badiiy obraz

Psixolog kasbi inson –inson tipidagi kasbga mansub bo'lib, ushbu kasbni o'zaro muloqot, kommunikatsiya, persepsiya va shaxslararo muloqotsiz tasavvur etish qiyin.Ya'ni kommunikativ kompetensiya ushbu kasb egalarining eng muhim va asosiy kompetensiyasini tashkil etadi. Pedagogik va psixologik adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ sifatlari murakkab integrativ fenomen sifatida o'qituvchining ta'lim jarayoni boshqa qatnashchilari bilan aloqa o'rnatishi, uni davomiy saqlab turishi va rivojlantirishini ta'minlovchi professional malakalari sifatida namoyon bo'ladi.[1;6]

Psixologning yetuk mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiymadaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, Biroq bunda eng muhimi shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shakliga ega bo'lib, avvalo, odamning shaxsiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi undan kerakli darajadagi jismoniy sog'liqni, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarning shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonga qandaydir kuch va jismoniy energiya sarflashni taqozo etadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita tomonni ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Ushbu o'zaro bog'liq tomonlar psixologlar M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkovlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga salohiyatli tayyorligi. Mutaxassisning bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo'ladi: kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar, kasb uchun muhim hisoblangan shaxsning sifatlari, uning munosabati, mazmun va qadriyatlarini, afzalliklari hamda umuman shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi.

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining ushbu tomoni tezkorligi, o'zgaruvchanligi, har qanday holat va sharoitda aniq masalalarni yechish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy-psixologik muhitga bog'liqligi bilan ifodalanadi.

Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash jarayonida unda kasbiy faoliyat uchun yetarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish zarur.

Ba'zi hollarda hatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy boshqarish yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday vaziyatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasi past bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini, kasbiy mahoratini, shuningdek, o'zini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) — mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi, ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga, o'zining vazifalarini bajarishga tayyorligi va yo'nalganligi darajasidir.

Bo'lajak psixologning ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Yo'naltiruvchi intellektual bilish. Bu tarkibiy qism mutaxassis shaxsining bilish sohasini o'z ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlashi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis shaxsning kasbga intellektual tayyorligini tashkil etadi. Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari o'z kasbiy mutaxassisligini tushuna olishi; o'zida pozitiv munosabatni tarkib toptira olishi, o'zini baholay olishi, bilish faoliyatiga qiziqishlari hisoblanadi.

- Ijrochilik. Bu tarkibiy qism kasbiy mahoratni (bilim, malaka, ko'nikmalar), kasbiy xulq odatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu yerga kasbiy qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi, mutaxassisning irodaviy tayyorligi, uning xulqi va faoliyati davomida o'zini boshqarishga qodirligi operatsional funksiyali tayyorgarlik kiradi.

Oliy o'quv yurti sharoitlarida mutaxassisni tayyorlashda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga, ta'lim olish jarayonida o'zini rivojlantirishga mavjud motivatsion doiraning yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, mutaxassisning kasbiy mahoratni egallab olishiga, kasbiy xulq odatlari va sifatlarni shakllantirishi, kasbiy qobiliyatini rivojlantirishiga, irodaviy tayyorgarligini oshirishga, faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi yadrosini shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy mahorati tashkil etadi. Hozirgi zamon mutaxassisining kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi alohida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali o'zaro yaqin aloqalar, xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va shaxsiy o'zaro munosabatlarga tayyorligi va bunday o'zaro munosabatlarni o'rnata olishga va rivojlantirishga qodirligini ko'zda tutadi. Shaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati yetarlicha darajada rivojlanganligida u so'z va tildan to'g'ri foydalanishni bilganidagina mavjud bo'ladi. Shaxsning nutq madaniyati uning fikrlash madaniyati rivojlanganligining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning shaxsiy va kasbiy kamol topishini muhim shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantirish hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xushmuomalalikni, do'stonalikni, o'rtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantirishni, kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalar munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, o'zaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni to'g'ri hal eta bilishni, ishda, xodimlar, kasbdoshlari bilan munosabatlarda murosaga kelishni ko'zda tutadi. Mutaxassis faoliyati muvaffaqiyatlilikini yana bir muhim sharti uning kasbiy va shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi.[2;47-48 b]

**Adabiyotlar tahlili va metodlari.** “Kommunikatsiya” so'zi lotincha “communico” so'zidan olingan bo'lib, “umumiy qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman” degan ma'nolarni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining taniqli olimlari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetentlilikni shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masala O'zbekiston Respubikasi pedagog va psixologlari N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, R.X.Djo'rayev, O.Musurmanova, U.SH.Begimqulov, N.N.Azixodjayeve, M.G.Davletshin, M.Ochilovlar tadqiqotlarida turli nuqtayi nazarlardan ko'rib chiqilgan. Jumladan, N.Azixodjayeve bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarni shakllanishini o'rgangan. Tadqiqotchilar N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayevlar pedagogning pedagogik kompetentligi hamda kreativligi asoslariga e'tibor qaratganlar. Pedagog olimalarimizdan O.Musurmanova yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rgangan. R.X.Djo'rayev ta'lim sifatini rivojlantirish asoslarini o'rganishgan.[3;19]

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapti. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi. O'zbekistonning xalqaro talablardagi zamonaviy taraqqiyotini ta'minlay oladigan dadil, mustaqil, ijodiy tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda shaxsiy insoniy sifatlari shakllangan barkamol kadrlarni tayyorlash maqsadini ko'zlaydi. Oliy ta'lim tizimida psixolog mutaxassislarni kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kadrlar tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshirish uchun pedagogik va texnik bilimlar sintezini ta'minlash zarur. Bo'lajak psixologlarning kasbiy shakllantirish pedagogik va texnik bilimlarni fan, ta'lim, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish iqtisodiyoti sohalaridagi o'zgarishlarga asoslangan integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon psixolog mutaxassislarni tayyorlash mazmunini asoslash va kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasini yaratishda muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bo'lajak psixolog mutaxassislarni kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligidan va uning dolzarbligidan guvohlik beradi. Nazariy manbalar mazmuni bilan tanishish, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan munosabatlarni o'rganish va dalillarni tahlil etish bo'lajak psixologlar kommunikativ kompetentligini shakllantirishda bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Bo'lajak psixologlar kommunikativ kompetentligini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, jamiyatga yetuk psixologlar tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash hamda uning sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmini ishlab chiqish orqali mutaxassis kompetentligini shakllantirishning asosiy maqsadini belgilaydi. Ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta'lim tizimida bo'lajak psixologlar kommunikativ kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak psixologlar kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi. Shu munosabat bilan bo'lajak psixologlarni oliy ta'lim muassasasida tayyorlash davridan talab qilinadigan kasbiy kompetentlik darajasini ta'minlaydigan yangicha

yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Agarda “kompetent” va “kompetentlik” tushunchalarining etimologik tahliliga nazar tashlasak, ular tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiluvchi talablar nuqtai nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to'plamini maqsadga muvofiq qo'llash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik – bu talabning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi. Mazkur o'rinda “kompetentlik” tushunchasining mohiyati ham to'la ochiladi, u quyidagi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatleri to'plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida. Ta'lim mazmunining o'quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to'plami uchun) va predmetli (ma'lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e'tirof etib o'tamiz:

- tayanch kompetentlik (ta'limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko'ra);
- fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o'quv fanlari va ta'lim bloklarining ma'lum doirligiga ko'ra);
- bitta predmet(fan) bo'yicha kompetentligi (maxsus o'quv fani doirasida aniq va ma'lum imkoniyatga egaligiga ko'ra).

Shunday qilib, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta'limning har bir bosqichi uchun ta'lim bloklari va o'quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan ular quyidagi kompetentlik turlariga bo'linadi: kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Psixolog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini rivojlantirishi zarur? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish yuzasidan tahlil ishlarini olib borish natijasida ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish mavzusida ish olib borgan olimlar aniqlandi:

Respublikamiz olimlaridan N.N.Azizxo'jaeva, U.SH.Begimqulov, R.X.Jo'raev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O.M.Musurmanova, E.A.Seytxalilov, N.M.Egamberdieva, F.R.Yuzlikaev, Z.E.Azimova, A.A.Xoliqov, X.A.Yulbarsovalarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak o'qituvchilarda

kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, integral-pedagogik jihatlari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan YU.N.Emelyanov, V.A.Kan-Kalik, S.L.Bratchenko, A.N.Ivashov, V.N.Grishina, U.Tomas, A.A.Bodalyov, A.I.Donsov, YU.M.Jukov, A.P.Panfilova, O.P.Sannikova, G.S.Trofimova, V.D.Shirshovlarning tadqiqotlarida shaxslararo hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish tamoyillari, shaxslararo muloqotning ijtimoiy-psixologik masalalari yoritib berilgan.

Xorijiy davlatlar olimlari Dj.Bivin, Dj.A.Grexem, Dj.Raven, D.Shonlarning ilmiy izlanishlarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-madaniy, psixologik va lingvistik jihatlari ochib berilgan.

Kommunikativ kompetentlik G.S.Trofimova tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib, "shaxsning insonparvarlik sifatlariga asoslangan va kommunikativ faoliyatning mahsuldorligini ta'minlashga qaratilgan, shaxsning shaxslararo muloqoti tajribasiga, uning o'qimishliligi, tarbiyasi va rivojlanganligi darajasiga bog'liq bo'ladi. G.S.Trofimova pedagogik kommunikativ kompetentlik g'oyasini, uni o'lchash metodikasini, didaktik modelini va kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning mazmuniy tuzilmasi bosqichlarini ishlab chiqdi. Kommunikativ kompetentlikni didaktik vositalar orqali shakllantirishning yo'llari va usullari aniqlandi hamda nazariy jihatdan asoslab berildi. Bu o'qitishga muloqot sifatida qarashlar tasdiqlanadi va o'quv jarayonining kommunikativ tabiatidan ta'lim oluvchilarning shaxsiy salohiyatlarini faollashtirish maqsadida foydalanish imkoni yaratiladi demakdir. Bunda didaktik shart-sharoitlarga shaxsning insonparvarlik sifatlarini shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi omili sifatida qaraladi. Ilmiy nazariy jihatdan ilk bora "kommunikativ kompetentlik" va "kommunikativ kompetensiya" tushunchalari bir biridan ajratildi: birinchi atama o'zaro muloqot muammolari bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy psixologlar va pedagoglar tomonidan foydalaniladi, ikkinchisi bilim olish faoliyati bilan bog'liq va undan tilshunoslar foydalanadilar. Kommunikativ kompetentlik muammosi gumanitar bilimlarning turli sohalarida muhim o'rinlardan birini egallaydi – falsafada (M.S.Kagan, B.D.Parigin, V.M.Sokovnin), umumiy va ijtimoiy psixologiyada (B.G.Ananev, A.A.Bodalev, Yu.N. Emelyanov, A.A. Leontev, L.A. Petrovskaya), pedagogikada (N.V.Kuzmina, V.V.Sokolova, G.S.Trofimova), ijtimoiy pedagogikada (B.Z.Vulfov, G.A.Kudryavseva). Insonparvarlik paradigmasiga mos ravishda subyekt-subyekt munosabatlari asosida deviant xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashda pedagog-psixologlarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammolari R.B.Deriglazova tomonidan o'rganilgan.

Kommunikativ kompetensiya-murakkab kommunikativ ko'nikma va ko'nikmalarini egalik, yangi ijtimoiy tuzilmalar yetarli ko'nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniy normalar va cheklovlar bilim, aloqa sohasida bojxona, urf-odatlar, etiket, odob-axloq, ta'lim, aloqa vositalari oriyentatsiya bilim, milliy, sinf mentalitetiga xos va bu kasb doirasida ifodalangan. Kommunikativ kompetensiya — bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o'z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir. Muloqot qobiliyati quyidagilardan iborat:

– muloqot qilish kerak bo'lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy psixologik prognozini berish;

– muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash, kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligiga asoslangan;

– kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

**Natijalar tahlili va muhokamalar.** Kommunikativ qobiliyat umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o'ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetensiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

1. Eng keng tarqalgan qoida — bu o'z-o'zidan tushunilmagan yoki to'liq tushunilmagan bo'lsa, fikr bildirishni boshlashning iloji bo'lmagan qoidadir.

2. Tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi. Ko'pincha semantik va shaxsiy to'siqlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha xabarlarini to'liq va noto'g'ri tushunishga olib keladi.

3. Aniqlik qoidasi. Noma'lum, noaniq so'zlardan qochish kerak va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan foydalanmaslik lozim.

4. Og'zaki bo'lmagan signallarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabarning mazmunini nazorat qilish yetarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort — yuz ifodalari, imo-ishoralari, intonatsiyasi, pozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak.

5. O'z nohaqligi qoidasi. Aloqa paytida har doim shaxsiy nuqtai nazar noto'g'ri bo'lishi mumkinligiga ruxsat berish kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.

6. Joy va vaqt qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi o'z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshadi.

7. Ochiqlik qoidasi. Yangi ochilgan vaziyatlarning ta'siri ostida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyor bo'lishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.

8. Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali kommunikatsiyalarning asosiy shartlaridan biridir.

9. Fikr-mulohaza qoidalari. Bu qoida, oxir-oqibatda, kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni ta'minlaydi — o'zaro tushunish.

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish
- shaxslararo muloqot ko'nikmasi;
- muloqotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o'rnatish; muloqot natijalarini analiz qilish.

**Xulosa.**Bo'lajak psixologlarning kasbiy tayyorgarligini modernizatsiya qilish nafaqat nazariy bilimlarni, balki mutaxassislarning kasbiy nutqining muhim tarkibiy qismi sifatida muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega shaxsning kommunikativ qobiliyatlari hissa qo'shadigan qobiliyat sifatida boshqa odamlar bilan aloqa o'rnatish, samarali faoliyatni amalga oshirish va ma'lum bir maqsadga erishishni osonlashtiradigan xususiyatdir.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada rivojlanishi kasbiy muvofiqlik tuzilishining muhim tarkibiy qismi hamda bo'lajak psixologning samarali faoliyatining asosidir.

Psixologiya faniga oid lug'atlarda aytilishicha, kommunikativ kompetensiya turli kommunikativ vaziyatlarda yo'naltirishni nazarda tutadi va shaxsning shaxslararo o'zaro ta'sir sohasidagi bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari, hissiy va ijtimoiy tajribasiga asoslanadi.

Shunday qilib, bo'lajak mutaxassislarni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlarni namoyon bo'ladi. Xususan, psixologga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlarni aks etadi. Kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish uchun bo'lajak psixolog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. X.Ibragimov, "Kommunikativ kompetensiya-bolajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayorlashning muhim mezonlari sifatida", Xalq-ta'limi ilmiy-metodik jurnali, Toshkent, 2022 yil 1-son 6 bet
2. O.E.Hayitov, N.Sh.Umarova. Kasbiy psixologiya fani. o'quv-uslubiy. -Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti, 2016.-47-48 b
3. A.Axmedov. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari. Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha) magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 y 5-6 bet
4. A.Axmedov. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi. Monografiya, Farg'ona.: FDU "Nusxa ko'paytirish bo'limi" 2023 y. 19-bet
5. Yusufovich, A.A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(6), 1157-1161.
6. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.
7. Yusufovich, A.A. (2022). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS IS THE MOST IMPORTANT CONDITION FOR INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION. Science and Innovation, 1(1), 572-586.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).